GREEN MARKETING STRATEGIES AND THE APPLICATION OF NEUROMARKETING METHODS IN THEIR DEVELOPMENT.....	819
Samadov Asqar Nishonovich, Latipova Go'zal	
OZIQ-OVQAT SANOATIDA KICHIK KORXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	825
Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi	
BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHDA INVESTITSİYALAR AHAMIYATINING EMPIRIK TAHLILI	831
Nazarova Ra'no Rustamovna, Najmiddinov Yahyo Fazliddin o'g'li	
YASHIL TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA MEHMONXONALAR ROLI: MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR.....	840
Raxmonova Nigina Anvarovna	
IJTIMOİY SIYOSAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI: O'ZBEKISTONNING AMALIY YONDASHUVI VA RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	844
Bafojev Farrux Jo'raqulovich	
AHOLI IJTIMOİY HIMOYASINI KUCHAYTIRISH MUAMMOLARI	852
Ulashev Xubbim Askarovich	
YASHIL TA'LIM RIVOJLANISH BOSQICHLARI: YAPONIYA MISOLIDA	856
Raxshona Nabibullayeva	



YASHIL TA'LIM RIVOJLANISH BOSQICHLARI: YAPONIYA MISOLIDA



Raxshona Nabibullayeva

Yangi O'zbekiston Universiteti, Menejment kafedrası tayanch doktoranti.

Annotatsiya. 2025-yil mamlakatimizda "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili" deb e'lon qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son Farmoniga asosan "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili"da amalga oshirishga doir davlat dasturi qabul qilinib, unda ustuvor yo'nalishlar belgilab berildi. Ushbu ustuvor yo'nalishlarga erishishda barcha islohotlar qatori ta'lim tizimida yashil ko'nikma va bilimlarni shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi. Yashil ko'nikma va bilimlarni shakllantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilab, rivojlanishning yuqori bosqichiga erishgan davlatlardan biri Yaponiyadir. Mazkur maqolada Yaponiya ta'lim tizimida yashil bilim va ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni yoritiladi. Yashil bilim va ko'nikmalar ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi, atrof-muhitga mas'uliyatli munosabat bilan bog'liq bilim va ko'nikmalar majmuini anglatadi.

Kalit so'zlar: yashil ta'lim, Yaponiya, yashil bilim va ko'nikmalar, ta'lim tizimida yashil ta'limning o'rni va ahamiyati.

Abstract. The year 2025 has been declared the "Year of Environmental Protection and Green Economy" in Uzbekistan. According to Presidential Decree No. PF-16 dated January 30, 2025, a State Program for implementing the "Uzbekistan-2030" Strategy during the Year of Environmental Protection and Green Economy was adopted, defining several priority directions. Achieving these priorities requires, among other reforms, the development of green skills and knowledge within the education system. Japan is one of the countries that has successfully prioritized and advanced green education to a high level. This article provides an overview of how green knowledge and skills are formed within the Japanese education system. Green knowledge and skills refer to a set of competencies aimed at ensuring environmental sustainability and fostering responsible attitudes toward nature.

Key words: green education, Japan, green knowledge and skills, the role and significance of green education in the education system.

Аннотация. В 2025 году в нашей стране был объявлен "Год охраны окружающей среды и зелёной экономики". В соответствии с Указом Президента Республики Узбекистан №ПФ-16 от 30.01.2025 года была принята Государственная программа по реализации стратегии "Узбекистан-2030" в год "охраны окружающей среды и зелёной экономики", в рамках которой определены приоритетные направления. Для достижения данных приоритетов одной из важнейших задач является формирование зелёных навыков и знаний в системе образования. Одной из стран, добившихся значительных результатов в этом направлении, является Япония. В данной статье рассматривается процесс формирования зелёных знаний и навыков в японской системе образования. Зелёные знания и навыки представляют собой совокупность компетенций, направленных на обеспечение экологической устойчивости и ответственное отношение к окружающей среде.

Ключевые слова: зелёное образование, Япония, зелёные знания и навыки, роль и значение зелёного образования в системе обучения.



KIRISH

Yaponiya davlati dunyoda ekologik madaniyati, shahar va qishloqlarining tozaligi, atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabati bilan yetakchi o'rinlarda e'tirof etiladi. Mamlakatning "yashil hayot tarzi" nafaqat davlat siyosatida, balki jamiyatning har bir a'zosining kundalik xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi. Bunga yorqin misollardan biri sifatida 2022-yilda futbol bo'yicha jahon chempionati vaqtida yapon muxlislarining o'yindan so'ng butun stadionni chiqindilardan tozalab ketgani butun dunyo ommaviy axborot vositalari tomonidan yuqori baholangan. Ushbu holat yapon jamiyatida ekologik mas'uliyatning qay darajada ildiz otganini, ekologik madaniyat shunchaki targ'ibot emas, balki hayotiy ehtiyoj sifatida shakllanganini ko'rsatadi.

Yaponiyaning ekologik xulq-atvori tasodifiy holat emas — u uzoq yillar davomida shakllangan ta'limiy, madaniy va ijtimoiy yondashuvlarning mahsulidir. Ayniqsa, maktabgacha ta'limdan boshlab barcha ta'lim bosqichlarida ekologik bilim, yashil ko'nikmalar, chiqindilarni ajratish, resurslarni tejash, tabiatni asrash kabi mavzular muntazam ravishda o'quv dasturlariga integratsiya qilingan. Ta'lim jarayonining o'ziga xos jihati shundaki, ekologik ko'nikmalar faqat nazariy bilimlar sifatida emas, balki kundalik amaliy faoliyat — maktab bog'larini parvarish qilish, chiqindilarni saralash, maktab hududini tozalash, energiya tejamkor texnologiyalar bilan tanishish kabi aniq mashg'ulotlar orqali shakllantiriladi.

Yaponiyada ekologik tarbiya milliy ta'lim siyosatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u o'quvchilarda tabiatni anglash, unga nisbatan hurmat va mas'uliyatni rivojlantirishga qaratilgan. Shu bois, yosh avlod ekologiyani muhofaza qilishni jamiyat oldidagi burch sifatida qabul qiladi. Natijada, butun jamiyat miqyosida ekologik mas'uliyatlilik, resurslardan oqilona foydalanish, ifloslanishning oldini olish kabi qadriyatlar shakllanib, Yaponiyaning barqaror rivojlanish strategiyasini qo'llab-quvvatlovchi asosiy omillardan biriga aylangan.

Shunday qilib, Yaponiyaning bugungi ekologik muvaffaqiyatlari atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha tizimli va izchil ta'lim siyosati, jamiyat ongida barqaror rivojlanish tamoyillarining chuqur ildiz otgani hamda yosh avlodda ekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan keng qamrovli yondashuv natijasidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yaponiya ta'lim tizimida yashil bilim va ko'nikmalarni shakllantirish masalasi bir qator yapon va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, Sato Misako ekologik ta'limning barqaror rivojlanish jarayonidagi o'rni (2006), shuningdek, xalqaro tajribani mahalliy amaliyotga tatbiq etish (2013) bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan.

Ichikava Yoshiyasu esa ekologik ta'limning xalqaro va qiyosiy tarixini, shuningdek Yaponiyaning global tajribalardagi rolini tahlil qilgan. Uning "Yaponiyada ekologik ta'lim: tarixiy va qiyosiy nuqtai nazar" (2004) hamda "Ekologik ta'limning rivojlanishi: tarixiy sharh" (2010) kabi ishlari mazkur yo'nalishda muhim manbalardan biridir.

Mochizuki Yoko yashil ta'limning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishdagi o'rnini (2015) chuqur o'rganib chiqqan bo'lsa, Ogava Masakazu Yaponiyaning boshlang'ich ta'lim tizimida yashil ta'limni joriy etish mexanizmlarini tadqiq qilgan (2021).

Shuningdek, Yamamoto Yoko ekologik ta'lim nazariyasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan (2015).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada yashil ta'limning rivojlanish tarixi mavjud ilmiy adabiyotlar, statistik ma'lumotlar va tahliliy manbalar asosida yoritildi. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, tarixiy yondashuv va kontent tahlili metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yaponiya maktablarida yashil ta'lim so'nggi oltmish yil davomida izchil ravishda rivojlanib kelmoqda va hozirda o'z taraqqiyotining uchinchi bosqichida davom etmoqda.

1-bosqich (1960-yillar)

Bu davrda sanoat ishlab chiqarishining atrof-muhitga salbiy ta'sirini o'rganish asosiy yo'nalish bo'ldi. Maktablarning boshlang'ich va o'rta ta'lim dasturlariga kimyo va neft-kimyo sanoati oqibatida suv, havo va tuproqning ifloslanishi kabi mavzular kiritildi.

2-bosqich (1970-yillarning o'rtalaridan 1990-yillargacha)

Bu bosqichda e'tibor sanoat ifloslanishidan shahar infratuzilmasi bilan bog'liq ekologik muammolarga qaratildi. O'quvchilar maishiy oqava suvlarning daryolarni ifloslantirishi, avtomobil chiqindilari sabab havoning buzilishi, qattiq maishiy chiqindilar hajmining ortishi kabi muammolarni o'rgandilar.

3-bosqich (1990-yillar – hozirga qadar)

Uchinchi bosqichda yashil ta'lim global ekologik muammolar — global isish, kislotali yomg'irlar, ozon qatlamining yemirilishi kabi jarayonlarni o'rganishga yo'naltirildi. Hozirda ham davom etayotgan ushbu



bosqichda barcha ta'lim darajalarida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, energiya tejash, qayta tiklanuvchi manbalardan foydalanish kabi mavzular keng yoritilmoqda.

1992-yilda Rio-de-Janeyro shahrida bo'lib o'tgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Atrof-muhit va rivojlanish" bo'yicha konferensiyasi ishtirokchilari global ekologik muammolar, jumladan yashil ta'lim bilan bog'liq bir qator dolzarb masalalarni ta'kidlab o'tdilar. Ushbu konferensiya Yaponiyada yashil ta'lim tizimining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Xususan, Yaponiya Ta'lim, madaniyat, sport, fan va texnologiyalar vazirligi (MEXT) tomonidan "maktablar uchun yashil ta'lim bo'yicha ko'rsatmalar" ishlab chiqildi va ta'lim amaliyotiga tatbiq qilindi.

1997-yilda Kioto shahrida o'tkazilgan "Iqlim o'zgarishi bo'yicha tomonlarning uchinchi konferensiyasi"dan so'ng global ekologik muammolar, xususan global isish, ta'lim jarayonida ijtimoiy fanlar doirasida eng dolzarb mavzulardan biri sifatida ilgari surildi.

Ushbu davrda boshlang'ich maktablarda qattiq chiqindilar bilan bog'liq muammolarni o'rgatish davom ettirildi. Chiqindilarni xavfsiz qayta ishlash, ularni saralash va kamaytirish masalalari o'quv dasturlariga tizimli ravishda kiritildi. Bundan tashqari, o'quvchilarning tabiatdagi tajribalarini oshirish, tabiiy muhitni kuzatish, ekologik tadbirlarda faol ishtirok etish kabi yondashuvlar yashil ta'limning muntazam qismiga aylandi. Yashil ta'limning mazkur bosqichi o'quvchilarda ekologik madaniyatning amaliy shakllarda mustahkamlanishiga xizmat qildi.

Shuningdek, oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi bo'yicha fanlararo ta'lim yo'nalishlari yashil ta'lim dasturlariga integratsiya qilindi. Bu esa o'quvchilarga oziq-ovqat mahsulotlarini ekologik xavfsiz tarzda yetishtirish, qayta ishlash va iste'mol qilishning inson salomatligi hamda jamiyat rivojiga ta'siri haqida chuqurroq tushuncha berdi.

Yaponiyada "yashil ta'lim" yoki Barqaror rivojlanish uchun ta'lim (ESD) milliy o'quv dasturining muhim qismi hisoblanadi. Mazkur ta'lim turi tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, muammolarni hal qilish kompetensiyalarini shakllantirish hamda barcha ta'lim bosqichlarida amaliy ekologik faoliyatni rag'batlantirishga qaratilgan (1-jadval).

1-jadval. Yaponiya ta'lim tizimi bosqichlarida yashil bilim va ko'nikmalarning ahamiyati¹

Ta'lim darajasi	Belgilangan vazifalar	Maxsus ko'nikmalar	Asosiy faoliyat va usullar
Boshlang'ich maktab	Tabiat va kundalik atrof-muhitni muhofaza qilishga oid asosiy qadriyatlarni shakllantirish.	Kuzatuv ko'nikmalari: mavsumiy o'zgarishlar, mahalliy ekotizimlar va biologik xilma-xillikni o'qituvchi bilan birgalikda dars davomida qayd etish. Amaliy ko'nikmalar: chiqindilarni saralash, bog'dorchilik, iste'molni kamaytirish. Guruhda ishlash: jamoaviy ekologik mas'uliyatni shakllantirish.	To'g'ridan-to'g'ri kuzatish va amaliy mashg'ulotlar: maktab bog'iga daraxt va ekinlar ekish, qayta ishlash markazlariga tashrif Integratsiyalashgan o'quv loyihalari: atrof-muhit mavzularini tabiiy fanlar va ijtimoiy fanlar bilan bog'lash
O'rta maktab	Murakkab global va mahalliy ekologik muammolarni, ularning ijtimoiy va iqtisodiy omillar bilan bog'liqligini chuqur anglash.	Muammoni hal qilish: ifloslanish, energiya resurslari boshqaruvi kabi mavzularni tahlil qilish. Tanqidiy fikrlash: barqaror jamiyat yaratish bo'yicha ilmiy qarashlarni shakllantirish. Hamkorlik qobiliyatlari: guruh loyihalari va muhokamalarda faol ishtirok.	Fuqarolik, fan, geografiya kabi fanlar o'rtasida integratsiya. Maktab miqyosidagi ekologik tashabbuslar; mahalliy jamoalar va korxonalar bilan hamkorlik. Mahalliy ekologik muammolar bo'yicha dalada tadqiqotlar va o'quvchi boshchiligidagi kichik loyihalar.
Universitet	Haqiqiy ekologik muammolarni hal etishga yo'naltirilgan ilg'or, fanlararo tadqiqotlar va barqarorlik tamoyillarini amaliy qo'llash.	Fanlararo tadqiqotlar: ijtimoiy, iqtisodiy va tabiiy fanlar kesimida ekologik muammolarni o'rganish. Texnik ko'nikmalar: qayta tiklanadigan energiya, atrof-muhit muhandisligi, barqaror qishloq xo'jaligi bo'yicha amaliy tajriba. Strategik fikrlash: barqaror rivojlanish uchun boshqaruv va yechimlar ishlab chiqish.	Atrof-muhitga oid fanlararo ta'lim dasturlari, magistratura yo'nalishlari. Tadqiqotga asoslangan ta'lim; hukumat va sanoat bilan stajirovka dasturlari; jamoatchilik bilan hamkorlik loyihalari.

1 Manba: mavjud ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.



Yaponiya maktablarida yashil ta'lim rivojlangan sari ikki muhim xususiyat shakllandi: birinchidan, yashil ta'lim fanlararo mavzuga aylandi; ikkinchidan, ekologik toza faoliyat va turmush tarzini shakllantirish o'quv dasturining institutsional qismiga aylandi.

Birinchi bosqichda atrof-muhitning ifloslanishiga e'tibor qaratilgan davrda yashil ta'lim asosan ijtimoiy fanlar doirasida olib borilgan. Ikkinchi bosqichda ham ekologik mavzularning katta qismi ijtimoiy fanlarda yoritilgan bo'lsa, uchinchi bosqichda yashil ta'lim kengayib, turli fanlar va sinflarni qamrab oluvchi umumiy o'quv mavzusiga aylandi.

MEXT tomonidan ishlab chiqilgan Yashil ta'lim bo'yicha ko'rsatmalar ("Har bir fan bo'yicha yashil ta'limga yo'l-yo'riqlar")da yettinchi—o'n ikkinchi sinflar uchun quyidagi fanlar yashil ta'lim tarkibiga kiritilgan: ijtimoiy fanlar, tabiatshunoslik, hayotni va atrof-muhitni o'rganish, barqaror uy-joy qurilishi, jismoniy tarbiya, yapon tili, matematika, axloqiy tarbiya va maxsus faoliyatlar.

1999-yilgi Milliy o'quv dasturida boshlang'ich va o'rta maktablar uchun "Integratsiyalashgan o'qish davri" joriy etilib, "atrof-muhit" keng qamrovli va fanlararo masala sifatida alohida dars yo'nalishiga aylantirilgan.

Yaponiya sinflarida yashil ta'limning ilk yillarida ifloslanish bo'yicha darslar sanoat faoliyati bilan bog'liq jarayonlarni o'rganishga qaratilgan bo'lib, bu orqali o'quvchilarda ekologik muammolarning kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf etish yo'llari to'g'risida dastlabki tasavvurlar shakllantirilgan. Ushbu yondashuv yosh avlodni ekologik ongli, amaliy yechimlar ishlab chiqa oladigan kadrlar sifatida tarbiyalashga xizmat qilgan.

Ikkinchi bosqichda yashil ta'limning mazmuni kengayib, o'quvchilarni ekologik muammolarni kamaytirish va oldini olishda shaxsiy mas'uliyatni his etishga undovchi amaliy faoliyatlar — chiqindilarni to'g'ri saralash, ekologik toza yuvish vositalaridan foydalanish kabi kundalik ekologik odatlarni shakllantirishga qaratildi.

MEXT tomonidan nashr etilgan Yashil ta'lim bo'yicha ko'rsatmalarda quyidagi fikr alohida ta'kidlangan: "Atrof-muhitga e'tiborli turmush tarzini qabul qilish bilan bir qatorda, ekologik muammolarning ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini tushunish ham zarur. Jamiyat tuzilmasini atrof-muhitga moslashgan holda rivojlantirish bo'yicha izchil harakatlar olib borilishi kerak."

Shuningdek, unda ekologik xavfsiz jamiyat qurishning quyidagi yo'nalishlari belgilangan:

- ishlab chiqarish jarayonida zararli moddalarni xavfsizroq moddalarga almashtirish;
- qayta ishlash va qayta foydalanish tizimlarini kengaytirish;
- energiya tejamkorlikni rivojlantirish;
- iste'mol bosqichida ekologik toza mahsulotlarni tanlash madaniyatini shakllantirish.

Bu orqali aholining ekologik qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsad qilingan.

Yaponiyaning 9-sinf ijtimoiy fanlar darsligida atrof-muhit bilan bog'liq mavzularning batafsil bayoni keltirilgan bo'lib, barcha o'quvchilarning ekologik savodxonligini oshirishga xizmat qiladi.

Masalan, darsliklarda quyidagilar yoritiladi:

- 1950-yillardan boshlab yuqori iqtisodiy o'sish davrida maishiy texnika — televizorlar, kir yuvish mashinalari, changyutgichlar, muzlatgichlar keng tarqalishi natijasida chiqindi hajmining oshishi;
- 1960–1970-yillarda sanoat rivoji bilan birga ifloslanishning kuchayishi;
- 1967-yilda "Atrof-muhitning ifloslanishi to'g'risida"gi asosiy qonunning qabul qilinishi;
- 1971-yilda Atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligining tashkil etilishi;
- 1993-yilda Ekologiya bo'yicha asosiy qonunning qabul qilinishi;
- ekologik toza mahsulotlar uchun "eko-yorliq" tizimining joriy etilishi.

Ushbu chora-tadbirlar Yaponiyaning ekologik siyosatini shakllantirishda muhim bosqich bo'lib, o'quvchilarga real hayotdagi ekologik jarayonlarni ilmiy asosda o'rganish imkonini beradi.

Ekologiya bo'yicha standartlarga javob beradigan tovarlar: Ko'plab mahsulotlar "ekologik toza mahsulot" yorlig'iga ega bo'lib, ular qayta ishlangan resurslardan ishlab chiqarilganini hamda atrof-muhitga minimal ta'sir ko'rsatishini tasdiqlovchi ekologik belgi bilan markalanadi.

Energiya va resurslarga bo'lgan talab yildan-yilga ortib bormoqda. Biroq qazib olinadigan yoqilg'i zaxiralari cheklangan bo'lgani uchun, kelajakda ularning tugab borishi muqarrar. Ushbu talabning oshishi nafaqat tabiiy resurslar kamayishiga, balki atmosferaga karbonat angidrid chiqarilishi ortishiga sabab bo'ladi. Bu global isishning asosiy omillaridan biridir. Har bir inson kundalik hayotida energiya sarfini kamaytirish orqali ekologik barqarorlikka o'z hissasini qo'sha oladi, ekologik ongli turmush tarzining amalda qo'llanilishi esa sezilarli ijobiy natijalarni beradi.

1950–1960-yillarda iste'molchilar tomonidan korxonalar faoliyatining atrof-muhitga ta'siri bo'yicha tanqidiy fikrlar ilgari surilgan. Ushbu munosabat natijasida Yaponiyadagi ko'plab kompaniyalar ifloslanishni kamaytirish va ekologik talablarga mos mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'ya boshladi. 2000-yilda hukumat barcha davlat idoralarini ekologik toza tovarlar va xizmatlarni xarid qilishga undovchi qonunni qabul qildi. Natijada ko'plab korxonalar o'z mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonida ekologik siyosatni qo'llashni boshladilar va bu borada jamoatchilikka ochiq ma'lumot berishni yo'lga qo'ydilar.



1993-yilda “Atrof-muhitni muhofaza qilish to’g’risida”gi Asosiy qonunning kuchga kirishi bilan hukumat, biznes va iste’molchilarning ekologik mas’uliyati yanada kuchaydi. Hozirda yangi ishlab chiqarish korxonalarini qurishdan oldin ularning atrof-muhitga ta’sirini baholashni talab qiluvchi normativ-huquqiy hujjatlar amalda. 2003-yilda esa davlat obyektlari va xususiy korxonalar, jumladan restoranlarni boshqaruvchilarni jamoat joylarida tamaki tutunidan xoli muhitni ta’minlashga undaydigan qonun qabul qilindi.

Yaponiyada yashil ta’limga turli yondashuvlar

Yashil bilim va ko’nikmalarni shakllantirish bog’cha yoshidan boshlab maktabning barcha bosqichlari, oliy ta’lim hamda oilada tizimli ravishda olib borilganda, bu ko’nikmalar barqaror hayotiy odatlarga aylanadi. Atrof-muhitni o’rganish orqali tabiat bilan yaqin aloqada yashash, ekologik tadbirlarda ko’ngilli ishtirok etish, uyda, maktabda va ish joyida energiya sarfini kamaytirish, organik oziq-ovqatlarni iste’mol qilish kabi odatlar shakllanadi. Bularning barchasi “yashil barqarorlikni ta’minlash”ga qaratilgan amaliy qadamlar hisoblanadi.

Yaponiyada yashil ta’lim bo’yicha ko’plab darsliklar va o’quv qo’llanmalar nashr etilgan bo’lib, ularning aksariyati ekologik jarayonlarni ilmiy nuqtai nazardan yoritishga qaratilgan. Ijtimoiy tadqiqotlar yo’nalishida “Hayotiy muhitni o’rganish” darsi qattiq chiqindilarni yig’ish va saralash bo’yicha amaliy mashg’ulotlarni o’z ichiga oladi. Ozon qatlamining yemirilishi, global isish, kislotali yomg’irlar va tropik o’rmonlarning qisqarish sabablari va oqibatlarini o’rganish esa ilmiy-ekologik yondashuvning namunasidir.

Yigirma birinchi asrning birinchi o’n yilligi oxiriga kelib, yashil ta’lim Yaponiyaning maktab o’quv dasturida yanada muhim o’rin egalladi. 2008-yilgi Boshlang’ich sinflar va 2009-yilgi O’rta maktablar uchun milliy o’quv dasturlarida “ekologik barqarorlik” ta’limning ustuvor maqsadlaridan biri sifatida belgilandi. Atrof-muhit muammolarini o’rganish nafaqat tabiatshunoslik va ijtimoiy fanlarda, balki uy xo’jaligi, jismoniy tarbiya kabi boshqa fanlarda ham davom ettirilmoqda. Bundan tashqari, yashil ta’lim integratsiyalashgan tadqiqotlarning muhim mavzusi bo’lib, fanlararo o’rganish boshlang’ich o’quv dasturining ajralmas qismiga aylangan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yashil ta’limning rivoji va uning amaliyotga tatbiq etilishi kelajakda barqaror jamiyatni shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim omillardan biridir. Ushbu maqsadga erishish jarayonida yashil ta’lim Yaponiya maktablarida o’quv rejalarining doimiy va ahamiyatli tarkibiy qismi bo’lib qoladi. Yashil ta’lim tizimini joriy etishda birinchi navbatda atrof-muhit va qazilma boyliklarning cheklangan resurslar ekanini anglash, ularni samarali saqlash, qayta tiklanadigan energiya manbalarini keng joriy etish yashil iqtisodiyotga o’tishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, atrof-muhit muammolarini kamaytirish ekologik ongni rivojlantirish, insonlarda yashil bilim va ko’nikmalarni shakllantirish orqali yanada samarali amalga oshirilishi mumkin. Yashil bilim va ko’nikmalarni shakllantirish ta’lim tizimining barcha bosqichlarida — maktabgacha ta’limdan boshlab maktab, keyingi bosqichlar va oliy ta’limgacha — o’quv dasturlariga uzluksiz integratsiya qilinishi lozim. Bunday izchil va tizimli yondashuv yosh avlodda ekologik madaniyatning barqaror shakllanishiga, shuningdek, ular tomonidan yashil va ekologik toza turmush tarzining hayotga tatbiq etilishiga mustahkam zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.01.2025 yildagi PF-16-son Farmoni. “O’zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi. <https://lex.uz/uz/docs/-7369703>
2. Yamane, Eiji. “Iqtisodiy ta’lim ekologik ta’limga zidmi? Radikal ekologik ta’lim tanqidlari.” Ijtimoiy tadqiqotlar jurnali, 76-son, Yaponiya Ijtimoiy Tadqiqotlar Assotsiatsiyasi, 1996.
3. Yamane, Eiji. “Yaponiyada atrof-muhit muammolari haqida o’rgatish.” Osiyo haqida ta’lim jurnali, 15-son, 2010.
4. Sato, Misako. “Yaponiyada barqaror rivojlanish uchun ekologik ta’lim.” (2006); “Xalqaro amaliyotning mahalliy amaliyotga tatbiq qilinishi.” (2013).
5. Ichikava, Yoshiyasu. “Yaponiyada ekologik ta’lim: tarixiy va qiyosiy nuqtai nazar.” (2004); “Yaponiyada ekologik ta’limning rivojlanishi: tarixiy sharh.” (2010).
6. Mochizuki, Yoko. “Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda yashil ta’limning o’rni.” (2015).
7. Ogava, Masakazu. “Yaponiya boshlang’ich ta’limida yashil ta’limning joriy etilishi.” (2021).
8. Yamamoto, Yoko. “Ekologik ta’lim nazariyasi.” (2015).
9. Yaponiya Ta’lim, madaniyat, sport, fan va texnologiyalar vazirligi (MEXT). <https://www.mext.go.jp/en/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>